



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
III-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDIAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	12
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIVAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA'LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI)	18
Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi	
SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO'SIQLAR TAHLILI	26
Xatamov Ochildi Qurbonovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ	32
PhD. Юлдашева С.Ш	
TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	38
Haydarova Dinora Atamurot qizi	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ	43
Гоженко Борис Владимирович	
MOLIVAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG'LARINI BOSHQARISHDA UNDA FOYDALANISH	50
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO'LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O'RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI	55
Fazilat Esirgapovna Jomonqulova	
Nizomov Murod	
Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi	
MECHANISMS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE	58
Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev	
BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH	62
R.I.Rashidov	
A.N. Elmurodov	
A.A. Muhiddinov	
TRANSFORMING ECONOMIC GOVERNANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL PUBLIC SECTOR TOOLS	68
Bokhodirol Boriykhon Boburovich	
Bahromjon Urmanov	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA VA KREDIT SALOHİYATINI BOSHQARISH	74
Ergashova Nilufar Sobirovna	
DEHQON XO'JALIKLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	80
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
VERTIKAL INTEGRATSIYALASHGAN BANK TUZILMASINI "YAGONA MFO" TEKNOLOGIYASI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISH SXEMASI	84
Qo'shboqov Doniyorbek Maxramqulovich	



O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL EKOTIZIM" VA RESURS SAMARADORLIGI (RECP)NI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA EMISSIALARNI KAMAYTIRISH SAMARADORLIGI	90
Do'stqobilov Ulug'bek Ibrohimovich	
TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR	94
Pardayeva Ozoda Mamayunusovna	
СНИЖЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ И КОММЕРЧЕСКИХ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЕЙ УЗБЕКИСТАНА	100
Маърупова Дилсора Абдулла кизи	
O'ZBEKISTON QURILISH SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING INSTITUTIONAL SHART-SHAROITLARI.....	105
Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li	
АКАДЕМИЧЕСКИЕ НАВЫКИ И ОСОБЕННОСТИ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ	113
Усманова Зумрад Исламовна	
Рахматуллаев Алижон	
Сайфитдинов Азизжон	
G'AZNACHILIK OPERATSIYALARINING BANKLIKVIDLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI (SILICON VALLEY BANK MISOLIDA)	119
Axadov Shahboz Shuxrat o'g'li	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТВЁРДЫМИ БЫТОВЫМИ ОТХОДАМИ В Г. ТАШКЕНТЕ: ОТ ПОЛИГОННОГО ЗАХОРОНЕНИЯ К РЕСУРСНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ	127
Джусупов Кубанычбек	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI AXBOROT TA'MINOTINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	133
Umidjon Kostayev	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR TEACHING STUDENTS OBJECTORIENTED PROGRAMMING IN A VIRTUAL COLLABORATIVE ENVIRONMENT USING GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS	140
Saidova Dilfuza Ergashovna	
AUDIT SIFATI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH	145
Muydinov Erkin Jamaldinovich	



AUDIT SIFATI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH



Muydinov Erkin Jamaldinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada audit sifati nazoratining besh bosqichli usuli auditorlik xulosalarining ishonchliligini ta'minlash va auditorlarning kasbiy mas'uliyatini oshirishning samarali vositasi sifatida tahlil qilingan. Auditorlik faoliyati sifatini nazorat qilishning asosiy bosqichlari, jumladan auditni rejalashtirish, tavakkalchiliklarni baholash, auditorlik amallarini amalga oshirish, natijalarni ichki nazoratdan o'tkazish hamda bajarilgan ishlar sifatini yakuniy tekshirish jarayonlari yoritib berilgan. Auditning xalqaro standartlariga rioya etish, xatolar xavfini kamaytirish va auditorlik tekshiruvlari samaradorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, besh bosqichli usulni qo'llash auditorlik faoliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash va moliyaviy nazorat tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: audit, sifat nazorati, audit riski, kichik va o'rta biznes subyektlari, auditorlik tashkiloti, besh bosqichli sifat nazorati, auditning xalqaro standartlari, ichki nazorat, vakolatli davlat organi, auditorning ishchi hujjatlari, kasbiy etika qoidalari, direktiva.

Abstract. This article examines the five-stage audit quality control approach as an effective tool for ensuring the reliability of audit opinions and enhancing auditors' professional responsibility. The study highlights the key stages of audit quality control, including audit planning, risk assessment, implementation of audit procedures, internal review of results, and final evaluation of the quality of completed audit work. Particular attention is paid to compliance with International Standards on Auditing (ISA), reduction of audit risks and errors, and improvement of the effectiveness of audit engagements. The findings demonstrate that the application of the five-stage approach contributes to strengthening confidence in audit activities and further improving the financial control system.

Keywords: audit, quality control, audit risk, small and medium-sized business entities, audit organization, five-stage quality control, International Standards on Auditing, internal control, authorized state body, auditor's working papers, professional ethics, directive.

Аннотация. В статье рассматривается пятиэтапный метод контроля качества аудита как эффективный инструмент обеспечения достоверности аудиторских заключений и повышения профессиональной ответственности аудиторов. Раскрываются основные этапы контроля качества аудиторской деятельности, включая планирование аудита, оценку рисков, выполнение аудиторских процедур, внутренний контроль результатов и итоговую проверку качества выполненной работы. Особое внимание уделено вопросам соблюдения Международных стандартов аудита, снижению вероятности ошибок и повышению эффективности аудиторских проверок. Сделан вывод о том, что применение пятиэтапного метода способствует укреплению доверия к аудиторской деятельности и дальнейшему совершенствованию системы финансового контроля.

Ключевые слова: аудит, контроль качества, аудиторский риск, субъекты малого и среднего бизнеса, аудиторская организация, пятиэтапный контроль качества, Международные стандарты аудита, внутренний контроль, уполномоченный государственный орган, рабочие документы аудитора, профессиональная этика, директива.



KIRISH

Audit xizmatlari sifati nazorati — auditorlik xizmatlarini ko'rsatishning barcha bosqichlarida (rejalashtirish, tavakkalchiliklarni baholash, auditorlik amallarini bajarish va auditorlik xulosasini shakllantirish jarayonlarida) Auditning xalqaro standartlari (XAS), kasbiy etika tamoyillari hamda amaldagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlovchi tizimdir. Kichik va o'rta biznes subyektlari auditida ichki nazorat tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi va integral tavakkalchiliklarning nisbatan yuqori darajada namoyon bo'lishi sharoitida audit xizmatlari sifati nazorati masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki u auditorlik xulosasining ishonchliligini ta'minlash, tavakkalchilikka yo'naltirilgan audit modelining samarali ishlashiga ko'maklashish hamda auditorlik xizmatlarining qo'shimcha qiymat yaratish salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Auditning xalqaro standartlarini amaliyotga keng joriy etish, tashqi sifat nazorati tizimini rivojlantirish hamda auditorlik tashkilotlarining mustaqilligini mustahkamlashni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining 25.02.2021-yildagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-sonli Qonuni mazkur yo'nalishdagi islohotlarning muhim huquqiy asosi bo'ldi [1]. Shuningdek, O'zbekistonda 2022–2026-yillarda audit sifati oshirish bo'yicha chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning tarkibiy qismi hisoblanadi [3]. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarga bo'lgan ishonchni yanada oshirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Audit sifati tushunishga oid klassik yondashuv L. DeAngelo tadqiqotlari bilan bog'liq bo'lib, unda audit sifati auditorning muhim xatolar yoki chetga chiqishlarni aniqlash va ular haqida xabar berish ehtimoli orqali izohlanadi [3]. Keyingi ilmiy tadqiqotlarda ushbu tushuncha yanada kengaytirilib, auditorlik firmasining hajmi, mijoz bilan hamkorlik muddati, tartibga solish darajasi, ichki monitoring tizimi, kasbiy etika madaniyati hamda rahbariyatning sifat uchun mas'uliyati kabi institutsional, tashkiliy va xulq-atvor omillari bilan boyitilgan.

Rossiya Federatsiyasida auditorlik faoliyati sifati nazorat qilish tizimi Auditning xalqaro standartlari (AXS) va milliy qonunchilik talablarining uyg'unlashuvi asosida rivojlanib bormoqda. Auditning xalqaro standartlarini amaliyotga joriy etish hamda auditorlik tashkilotlarida sifatni boshqarish tizimida tavakkalchilikka yo'naltirilgan yondashuvga o'tish ushbu yo'nalishdagi islohotlarning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Audit sifati nazorat qilishning nazariy va uslubiy asoslarini rivojlantirishga rossiyalik olimlar V.I. Podolskiy [4], A.D. Sheremet, V.P. Suys [5] hamda audit va moliyaviy nazorat sohasidagi boshqa mutaxassislar salmoqli hissa qo'shganlar.

O'zbek olimlaridan M.M. Tulaxodjayeva audit sifati korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirish va moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarning ishonchini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida baholaydi. Uning ilmiy tadqiqotlarida auditorlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, kasbiy etikani rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish hamda auditorlik tashkilotlarida ichki sifat nazorati tizimini kuchaytirish zarurligi alohida ta'kidlangan [6].

K.B. Axmedjanov ichki audit samaradorligi va sifati baholash mezonlarini tadqiq etib, O'zbekistonda audit sifati nazorat qilish tizimini rivojlantirish auditorlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va auditorlik amallarining sifat monitoringini kuchaytirish bilan uzviy bog'liq ekanligini qayd etadi. Olimning tadqiqotlarida ichki audit samaradorligi va sifati mezonlari, audit sifati nazorat qilish tizimini rivojlantirish hamda xalqaro yondashuvlarni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish masalalari atroflicha yoritilgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida audit sifati nazoratini takomillashtirish bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalarni kompleks o'rganish imkonini beruvchi umumilmiy hamda maxsus tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotda tahlil va sintez usuli orqali audit sifati nazoratining nazariy asoslari hamda amaldagi amaliyoti o'rganildi. Taqqoslash usuli yordamida milliy va xalqaro tajribalar, shuningdek audit sifati nazorat qilishning turli yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, audit sifati nazoratining amaldagi tizimi ayrim hollarda rasmiy xarakter kasb etib, kasbiy tavakkalchiliklar hamda Auditning xalqaro standartlari (XAS) talablaridan chetga chiqish holatlarini o'z vaqtida aniqlash imkonini har doim ham ta'minlay olmaydi.



“O‘zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq auditorlik faoliyati sifati nazorati bir necha shakllarda amalga oshiriladi: auditor tomonidan o‘z assistentlari faoliyatini nazorat qilish; auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlar ishini nazorat qilish; hamda vakolatli organlar tomonidan tashqi nazoratni amalga oshirish [2].

Yevropa mamlakatlari tajribasi o‘rganilganda audit sifati nazorati tizimi Yevropa Ittifoqining 2006/43/YEIsan Direktivasi asosida shakllantirilgani va majburiy tashqi tekshiruvlar hamda Auditning xalqaro standartlarini qo‘llash tamoyillariga asoslanishi aniqlandi. Mazkur tizim ijtimoiy ahamiyatga ega tashkilotlar auditorlari ustidan qat’iy nazoratni, muntazam sifat tekshiruvlarini, yuqori kasbiy-axloqiy talablarni va uzluksiz malaka oshirish tizimini o‘z ichiga oladi. Direktivaga muvofiq auditorlar va auditorlik tashkilotlari xizmat ko‘rsatilayotgan subyektlarning xususiyatidan kelib chiqib kamida har uch yoki olti yilda bir marotaba sifat nazorati tekshiruvlaridan o‘tishlari lozim [8].

Audit sifati nazoratining zamonaviy xalqaro modeli Sifatni boshqarishning xalqaro standartlari (ISQM) asosida rivojlanmoqda. Mazkur standartlar auditorlik tashkilotlarida tavakkalchiliklarni boshqarishga asoslangan sifat tizimini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu tizim quyidagi asosiy standartlarni o‘z ichiga oladi:

- ISQM 1 – auditorlik tashkilotining sifatni boshqarish tizimiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi. Unda tavakkalchiliklarni baholash, kasbiy etika, resurslarni boshqarish, axborot almashinuvi va monitoring masalalari qamrab olingan [9].

- ISQM 2 – topshiriq sifatini tekshirish tartibini belgilaydi hamda tekshiruv qachon, kim tomonidan va qanday amalga oshirilishi lozimligini tartibga soladi [10].

Audit sifati nazorati masalalariga bag‘ishlangan xalqaro standartlar, xorijiy tashkilotlarning rasmiy hujjatlari hamda ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish va ularni milliy amaliyot bilan qiyosiy tahlil qilish natijasida audit sifati nazoratining takomillashtirilgan besh bosqichli modeli ishlab chiqildi.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasida auditorlik tashkilotlari faoliyati sifatini nazorat qilish quyidagi besh darajada amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. Birinchi daraja – vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;
2. Ikkinchi daraja – auditorlarning o‘zini o‘zi boshqaruvchi professional jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;
3. Uchinchi daraja – auditorlik hisobotlarini qabul qilish jarayonida buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;
4. To‘rtinchi daraja – hamkorlik kelishuvi asosida boshqa auditorlik yoki ekspert tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil nazorat;
5. Beshinchi daraja – auditorlik tashkilotining ichki sifat nazorati tizimi orqali amalga oshiriladigan nazorat.

Mazkur besh darajali nazorat tizimi audit sifati ustidan ko‘p bosqichli monitoringni ta‘minlashga, auditorlik xulosalarining ishonchligini oshirishga hamda kasbiy javobgarlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, audit sifati nazoratining ushbu xalqaro tajribaga asoslangan modeli mamlakatimiz auditorlik amaliyotida qo‘llanilsa, auditorlik xizmatlari sifati va ularga bo‘lgan ishonch sezilarli darajada oshadi.

“O‘zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi auditorlik faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish vakolatiga ega. Ushbu nazorat darajasining zarurligi auditorlik faoliyatining ijtimoiy ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi. Auditorlik tekshiruvlari natijalari investorlar, kreditorlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

Vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat qoidabuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, auditorlik faoliyatida kasbiy standartlarga rioya etilishini ta‘minlash hamda auditorlik kasbiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, mazkur nazorat darajasi milliy audit tizimini Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va boshqa rivojlangan davlatlarda qo‘llanilayotgan xalqaro sifat nazorati amaliyotlari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

- auditorlik faoliyati sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta‘minlaydi;
- O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun Auditning xalqaro standartlarini tan oladi;
- auditorlik tashkilotlari faoliyati sifatini tashqi nazoratdan o‘tkazish tartibini belgilaydi.

Mazkur Qonunning 12-moddasiga muvofiq, auditorlik faoliyati ustidan davlat nazoratini amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan hamkorlikda auditorlik tashkilotlari faoliyati sifatini tashqi nazoratdan o‘tkazadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.09.2022-yildagi “Auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 538-sonli qarori, hisoblanadi [2]. Mazkur Nizomning 11-bandiga ko‘ra, tashqi sifat nazorati tavakkalchilik tahlili natijalari hamda



auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzish ehtimoli darajasini baholash asosida amalga oshiriladi.

Nizomning 12-bandiga muvofiq, auditorlik tashkilotlari tavakkalchilik darajasiga qarab quyidagi toifalarga ajratiladi:

- qoidabuzarliklar sodir etilishi tavakkalchiligi yuqori bo'lgan auditorlik tashkilotlari;
- qoidabuzarliklar sodir etilishi tavakkalchiligi o'rtacha bo'lgan auditorlik tashkilotlari;
- qoidabuzarliklar sodir etilishi tavakkalchiligi past bo'lgan auditorlik tashkilotlari.

Tashqi sifat nazorati yakunlari bo'yicha tegishli dalolatnoma rasmiylashtiriladi. Nazorat natijasida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi auditorlik tashkilotiga ularni bartaraf etish bo'yicha majburiy ko'rsatmalarni hamda bajarish muddatlarini o'z ichiga olgan bildirishnoma yuboradi.

Mamlakatimizda audit sifati ustidan ikkinchi darajali nazorat nazariy jihatdan auditorlarning kasb tashkilotlari hisoblangan O'zbekiston Auditorlar palatasi hamda O'zbekiston Buxgalterlar va Auditorlar assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Auditorlarning kasb tashkilotlari xalqaro amaliyotda ham, mamlakatimiz auditorlik xizmatlari bozorida ham davlat, biznes va auditorlar o'rtasidagi muhim bog'lovchi bo'g'in sifatida faoliyat yuritadi hamda yuqori sifatli auditorlik xizmatlarini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi.

Kasb tashkilotlari audit sohasida katta amaliy tajriba va maxsus bilimlarga ega bo'lganligi sababli ular o'z a'zolari bo'lgan auditorlik tashkilotlarining audit metodologiyasiga rioya etishini hamda professional standartlarni qo'llash darajasini chuqurroq baholash imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, mazkur nazorat darajasi auditorlik hamjamiyatining kasbiy mas'uliyatini rivojlantirish va auditorlik xizmatlari sifatiga yagona yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Buni mazkur tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan amaliy ishlar misolida ham ko'rish mumkin. Jumladan, 2017-yil avgust oyida ushbu ikki tashkilot hamkorligida ishlab chiqilgan "Auditorlik faoliyatini tashqi sifat nazoratidan o'tkazish qo'mitasi to'g'risidagi Nizom" [12] tasdiqlangan hamda "Taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini nazorat qilish va auditorlik kasbiy etikasi kodeksiga rioya etilish darajasini aniqlash bo'yicha namunaviy dastur" [13] ishlab chiqilgan.

Mazkur Nizomga ko'ra Qo'mitaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- uyushma a'zolari bo'lgan auditorlik tashkilotlari va sertifikatlangan auditorlar tomonidan amalga oshiriladigan audit sifati nazoratini tashkil etish;
- audit uslubiyoti qo'mitasi bilan hamkorlikda metodik qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish, auditorlik faoliyati sifatini nazorat qilish masalalari bo'yicha tavsiya va ko'rsatmalar tayyorlash;
- auditorlik tashkilotlari va auditorlar tomonidan kasbiy etika qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;
- auditorlik tashkilotlari va sertifikatlangan auditorlar tomonidan o'tkazilgan sifat nazorati natijalarini ko'rib chiqish hamda tasdiqlash.

"O'zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 48-moddasida auditorlik tashkiloti faoliyati sifatining asosiy ko'rsatkichlari va ularni baholash tartibi belgilangan. Unga ko'ra auditorlik tashkiloti faoliyati sifatining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- ichki nazorat tizimining mavjudligi;
- Auditning xalqaro standartlari, sifatni boshqarish standartlari va kasbiy etika kodeksi talablariga rioya etilishi;
- jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi;
- xalqaro auditorlik tashkilotlari yoki assotsiatsiyalariga a'zolik;
- auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va turdosh xizmatlar ko'rsatish metodologiyasining mavjudligi;
- auditorlik xizmatlari natijalarining tegishli tartibda hujjatlashtirilishi;
- auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish uchun yetarli mehnat va vaqt resurslariga egalik;
- axborot texnologiyalari va zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanish;
- auditorlarning har yili malaka oshirish kurslaridan o'tishi;
- qonunchilik talablarining buzilishi holatlari mavjud emasligi;
- jismoniy va yuridik shaxslarning asoslangan shikoyatlari hamda auditorlik tashkiloti faoliyati yuzasidan salbiy xulosalar mavjud emasligi, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida bunday ma'lumotlarning uchramasligi.

Xalqaro amaliyotda tashqi sifat nazorati yakunlari bo'yicha auditorlik tashkilotlariga berilgan baholash toifalariga qarab quyidagi choralar qo'llaniladi:

- birinchi toifa — ogohlantirish berish yoki profilaktik tavsiyalar taqdim etish;
- ikkinchi toifa — ogohlantirish berish va (yoki) jarima qo'llash;
- uchinchi toifa — jarima qo'llash;
- to'rtinchi toifa — jarima qo'llash va (yoki) auditorlarning jamoat birlashmalaridagi a'zolibini vaqtincha to'xtatib turish masalasini ko'rib chiqish.



Tavsiyamizga ko'ra, auditorlik tashkilotlari faoliyati sifatining uchinchi darajadagi nazorati buyurtmachi tomonidan auditorlik xulosasi va hisobotini qabul qilish jarayonida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur daraja audit sifatini baholashning bozor mexanizmini aks ettiradi. Buyurtmachi auditorlik xulosalarining to'liqligi, o'z vaqtida taqdim etilishi, asoslanganligi, tavsiyalarining amaliy ahamiyati hamda natijalarning shartnoma shartlariga muvofiqligini baholaydi. Kamchiliklar aniqlangan taqdirda buyurtmachi ularni bartaraf etishni talab qilish yoki audit natijalarini qabul qilishni rad etish huquqiga ega.

Ushbu darajaning o'ziga xos jihati shundaki, u auditorlik tashkilotlarini xizmatlar sifatini oshirishga, kasbiy etika talablariga rioya qilishga va ishchanlik obro'sini mustahkamlashga rag'batlantiradi. Auditorlik xizmatlari bozorida raqobat muhiti mijoz fikrini auditorlik tashkilotining barqaror faoliyat yuritishidagi muhim omillardan biriga aylantiradi.

Mazkur talablar odatda mijoz bilan tuzilgan shartnomada aks ettiriladi. Biroq ayrim hollarda bunday holatlar shartnomada nazarda tutilmagan bo'lsa ham, auditorlik tashkiloti rahbariyati ichki sifat nazoratiga oid hujjatlar asosida mijoz rahbariyatiga auditorlar ishini baholash yuzasidan murojaat qilishi mumkin. Shu maqsadda mustaqil izlanuvchi tomonidan tavsiya etilgan ma'lumotnoma shaklidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Mazkur hujjatdan foydalanish, ayniqsa, audit guruhi a'zolari soni kam bo'lib, ularning bilim va amaliy tajribasi bir-biriga yaqin bo'lgan hollarda kichik va o'rta biznes subyektlari (KO'BS) tomonidan auditorlik tashkiloti faoliyatiga umumiy baho berishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchi darajadagi nazorat auditorlik tashkiloti tomonidan hamkorlik kelishuvi asosida jalb qilingan boshqa professional tashkilotlar (auditorlik, konsalting tashkilotlari va kasb birlashmalari) bilan birgalikda topshiriqni bajarish va (yoki) audit sifati nazoratini amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Bu borada xalqaro amaliyot shakllangan bo'lib, uning normativ asosini Sifatni boshqarishning xalqaro standarti – ISQM 1 [9] hamda Topshiriq sifatini ko'rib chiqish bo'yicha xalqaro standart – ISQM 2 [10] tashkil etadi.

AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi davlatlarda bir auditorlik tashkiloti boshqa auditorlik tashkilotining sifat tizimini baholashi, ishchi hujjatlarini ko'rib chiqishi, metodologiya va professional standartlarga rioya etilishi darajasini tahlil qilishi amaliyoti mavjud. Bunday baholash natijalari professional tashkilotlar va vakolatli tartibga soluvchi organlarga taqdim etilishi mumkin. Mazkur amaliyot American Institute of Certified Public Accountants (AICPA) [14], Public Company Accounting Oversight Board (PCAOB) [15] hamda CPA professional uyushmalari [16] tomonidan keng qo'llaniladi.

Ushbu yondashuv, asosan, yirik va tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar auditini o'tkazishda samarali hisoblanadi. Mazkur nazorat darajasi mustaqil professional ekspertiza shakli sifatida auditorlik amallarining to'g'ri qo'llanilishini, auditorlik dalillarining yetariligidini hamda auditorning professional mulohazalari asoslanganligini xolis baholash imkonini beradi.

Shuningdek, ushbu nazorat shakli auditorlik tashkilotlari o'rtasida kasbiy tajriba almashish, uslubiy kamchiliklarni aniqlash, auditorlik tavakkalchiliklarini kamaytirish, auditorlik faoliyati shaffofligini oshirish hamda auditorlik xulosalariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

5-darajadagi nazorat – auditorlik tashkilotining ichki sifat nazorati

Beshinchi darajadagi nazoratda audit sifati nazorati bevosita auditorlik tashkilotining o'zi tomonidan amalga oshiriladi. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunning 45-moddasiga ko'ra, auditorlar ishi sifatining ichki nazorati auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan hamda auditorlar va boshqa xodimlar tomonidan mazkur Qonun talablariga rioya etilishini ta'minlovchi tartib-taomillarga asoslangan tashkiliy chora-tadbirlar tizimidan iborat.

"Moliyaviy hisobotlar auditida sifat nazorati" nomli 220-son Auditning xalqaro standartida auditorlik tashkilotining sifat nazorati siyosati va amaliy tadbirlari auditorlik tashkiloti, alohida auditorlik tekshiruvlari hamda auditorlik topshiriqlari darajasida tashkil etilishi lozimligi ta'kidlangan [17].

Auditorlar ishi sifatining ichki nazorati auditorlik tashkiloti tomonidan Auditning xalqaro standartlari va auditorlik faoliyati standartlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi hamda auditorlik xizmatlarini ko'rsatish jarayonining ajralmas va majburiy elementi hisoblanadi.

Auditorlik tashkilotida amalga oshiriladigan ichki sifat nazoratini shartli ravishda dastlabki, joriy va yakuniy nazorat bosqichlariga ajratish mumkin.

Dastlabki sifat nazorati auditorlik tekshiruvini qabul qilish, rejalashtirish va tashkil etish bosqichlarida amalga oshiriladigan tadbirlarni qamrab oladi. Mazkur bosqich quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Mijoz faoliyatini har tomonlama o'rganish:

- mijoz faoliyat yuritayotgan tarmoqning holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;
- mijoz korxonaning ishbilarmonlik muhitidagi obro'-e'tiborini o'rganish;
- mulkdorlar tarkibini aniqlash;
- korxona rahbariyati va boshqaruv tizimini baholash;



- mijoz faoliyatiga taalluqli Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari, imtiyozlar va preferensiyalarni o'rganish;
- yangi mijoz bilan hamkorlik qilish yoki mavjud mijoz bilan munosabatlarni davom ettirish maqsadga muvofiqligini baholash hamda tegishli qaror qabul qilish.

2. Auditorlik guruhini shakllantirish:

- audit guruhi tarkibiga mijoz faoliyat yuritayotgan tarmoq xususiyatlarini biladigan auditorlarni jalb etish;
- tajribali auditorni guruh rahbari etib tayinlash;
- auditorlik tashkilotining mijozga nisbatan mustaqilligini baholash;
- auditorlarning mijozga nisbatan mustaqilligini tekshirish;
- auditorlarni zarur me'yoriy-huquqiy va uslubiy materiallar bilan ta'minlash.

3. Audit topshirig'i shartlarini kelishish:

- "Audit topshirig'i shartlarini kelishish" nomli 210-son Auditning xalqaro standartiga muvofiq mijoz bilan kelishuv xatini rasmiylashtirish.

4. Topshiriqni qabul qilishni hujjatlashtirish:

- auditorlik guruhi rahbari tomonidan topshiriq qabul qilinganligi to'g'risida tegishli ishchi hujjatni rasmiylashtirish.

5. Auditni rejalashtirish:

- auditorlik tekshiruvining umumiy strategiyasini ishlab chiqish;
- audit rejasi va dasturini tayyorlash;
- muhimlik darajasi va auditorlik tavakkalchiliklarini baholash;
- audit resurslarini taqsimlash va muddatlarni belgilash.

Joriy nazorat

Auditorlar ishi sifatini bevosita audit jarayonida nazorat qilish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- asosiy auditor tomonidan auditor assistentlari faoliyatini nazorat qilish;
- auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlar ishini nazorat qilish.

Asosiy auditor auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida yordamchilari tomonidan bajarilayotgan ishlarni muntazam ravishda nazorat qilishi va ularga zarur yo'nalishlar berib borishi lozim. Auditorlik tekshiruvi davomida audit guruhi rahbari assistentlarning o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun yetarli bilim, ko'nikma va malakaga ega ekanligini baholaydi.

Auditor assistentlaridan farqli ravishda, asosiy auditor zimmasiga auditorlik tekshiruvining sifatli va Auditning xalqaro standartlari talablariga muvofiq amalga oshirilishi uchun to'liq javobgarlik yuklatiladi.

Ishlarni bajarish topshirilgan assistentlar o'z vakolatlari va mas'uliyati, bajarilishi lozim bo'lgan auditorlik amallarining maqsadi, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining xususiyatlari hamda auditning o'tkazilish muddati va ko'lamiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan auditorlik masalalari to'g'risida yetarli darajada xabardor qilingan bo'lishlari zarur.

Auditorlik tekshiruvi yakunlangach, asosiy auditor assistentlar tomonidan bajarilgan ishlar sifatini baholaydi. Baholash shakli va mezonlari har bir auditorlik tashkilotining ichki siyosati hamda sifat nazorati tizimidan kelib chiqib belgilanadi.

Audit guruhi faoliyati sifati auditorlik tekshiruvi davomida auditorlik tashkilotida sifat nazorati uchun mas'ul etib tayinlangan shaxs tomonidan muntazam monitoring qilinadi. Auditorlik tekshiruvi yakunlangandan so'ng mazkur mas'ul shaxs audit sifati darajasini baholash maqsadida mijoz korxona rahbariyati bilan suhbat yoki intervyu o'tkazishi mumkin.

Tekshiruv yakunida sifat nazorati uchun mas'ul shaxs audit guruhi rahbari tomonidan taqdim etilgan ishchi hujjatlar asosida auditorlik tekshiruvining tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq hamda Auditning xalqaro standartlari talablariga rioya etilgan holda amalga oshirilganligini tekshiradi.

Audit, moliyaviy hisobotlarni ko'rib chiqish, ishonch bildiruvchi topshiriqlar va turdosh xizmatlarni ko'rsatish jarayonlarida audit sifati nazorati tizimini tashkil etish bo'yicha auditorlik tashkilotlarining asosiy majburiyatlari va amaliy tartiblari "Moliyaviy hisobotlar auditi va ularni ko'rib chiqish, ishonch bildiruvchi topshiriqlar hamda turdosh xizmatlar bo'yicha boshqa kelishuvlarni bajaruvchi auditorlik tashkilotlarida sifat nazorati" nomli Sifat nazoratining xalqaro standarti (SNXS 1)da belgilangan [18].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida audit sifati nazoratini tashkil etishning taklif etilgan besh darajali tizimi auditorlik faoliyatining ishonchliligi va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan kompleks yondashuv sifatida baholanishi mumkin.



Mazkur tizimning o'ziga xos jihati shundaki, u audit sifati nazoratining turli darajalarini yagona mexanizm doirasida uyg'unlashtiradi. Ushbu tizim quyidagi tarkibiy elementlarni o'z ichiga oladi:

- davlat nazorati;
- kasbiy o'zini o'zi boshqarish va tartibga solish mexanizmlari;
- audit sifati baholashning bozor mexanizmlari;
- mustaqil tashqi ekspertiza;
- auditorlik tashkilotining ichki sifat nazorati tizimi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur nazorat darajalarining o'zaro hamkorligi va bir-birini to'ldirishi audit sifati nazoratining uzluksiz va samarali tizimini shakllantirish imkonini beradi. Bunday yondashuv auditorlik xulosalarining ishonchiligi oshirishga, auditorlik tavakkalchiliklarini kamaytirishga, auditorlarning kasbiy mas'uliyatini kuchaytirishga hamda auditorlik xizmatlari sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, taklif etilgan besh darajali nazorat tizimi O'zbekiston Respublikasida Auditning xalqaro standartlari va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini amaliyotga samarali joriy etish, kichik va o'rta biznes subyektlarida moliyaviy hisobotlarning shaffofligi hamda ishonchiligi ta'minlash, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning auditorlik faoliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash uchun muhim institutsional asos bo'lib xizmat qiladi.

Natijada audit sifati nazoratining takomillashtirilgan ko'p bosqichli modeli milliy auditorlik tizimining xalqaro talablarga mos ravishda rivojlanishiga, auditorlik xizmatlari bozorining raqobatbardoshligini oshirishga hamda mamlakatda qulay investitsion muhitni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 25.02.2021-yildagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/-5307886>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.09.2022-yildagi "Auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 538-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-6212685>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
4. DeAngelo L.E. Auditor Size and Audit Quality // Journal of Accounting and Economics. – 1981. – Vol. 3. – No. 3. – P. 183–199.
5. Подольский В.И. Аудит: учебник. – Москва: Юрайт, 2015. – 587 с.
6. Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит: учебник. – Москва: ИНФРА-М, 2017. – 375 с.
7. Тулахужаева М.М. Роль внешнего контроля за деятельностью аудиторских организаций. – URL: <https://www.norma.uz> (murojaat sanasi: 10.05.2026).
8. Axmedjanov K.B., Nam A. Audit sifati baholash va takomillashtirish masalalari // Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy ishlari. – URL: <https://iqtisodiyot.tsue.uz> (murojaat sanasi: 10.05.2026).
9. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). International Standard on Quality Management (ISQM 2): Engagement Quality Reviews. – New York, 2020. – URL: <https://www.iaasb.org> (murojaat sanasi: 10.05.2026).
10. International Federation of Accountants (IFAC). Preparing for the New Quality Management Standards: ISQM 1 Quality Objectives and Quality Risks. – URL: <https://www.ifac.org> (murojaat sanasi: 10.05.2026).
11. World Bank Centre for Financial Reporting Reform (CFRR). Quality Management Projects Presentation. – Washington D.C., 2021. – URL: <https://cfrf.worldbank.org> (murojaat sanasi: 10.05.2026).
12. Auditorlik faoliyatini tashqi sifat nazoratini amalga oshirish qo'mitasi to'g'risidagi Nizom. – URL: <https://lex.uz> (murojaat sanasi: 10.05.2026).
13. Auditorlik xizmatlari sifatini nazorat qilish va Auditorlarning kasb etikasi kodeksiga rioya etilishi darajasini aniqlash bo'yicha namunaviy dastur. – URL: <http://uzaudit.uz> (murojaat sanasi: 10.05.2026).
14. American Institute of Certified Public Accountants (AICPA). Official website. – URL: <https://www.aicpa-cima.com> (murojaat sanasi: 10.05.2026).
15. Public Company Accounting Oversight Board (PCAOB). Official website. – URL: <https://pcaobus.org> (murojaat sanasi: 10.05.2026).
16. CPA Certification and Professional Standards. – URL: <https://finacademy.net> (murojaat sanasi: 10.05.2026).
17. Auditning xalqaro standarti 220: Moliyaviy hisobotlar auditida sifat nazorati. – URL: <https://www.imv.uz> (murojaat sanasi: 10.05.2026).
18. Sifat nazoratining xalqaro standarti (SNXS 1): Moliyaviy hisobotlar audit va turdosh xizmatlarni bajaruvchi auditorlik tashkilotlarida sifat nazorati. – URL: <https://www.imv.uz> (murojaat sanasi: 10.05.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>